



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO  
BAHOLASH ILMY-AMALIY  
**MARKAZI**



Respublika  
Ta'lim Markazi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH  
ILMIY-AMALIY MARKAZI

**2023  
2024**

O'QUV YILIDA  
UMUMTA'LIM  
MAKTABLARINING 11-SINF  
O'QUVCHILARI UCHUN

# O'ZBEKISTON TARIXI

FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH  
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR



**2023-2024-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING  
11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI O'TKAZISH  
BO'YICHA O'ZBEKİSTON TARIXI FANIDAN SPETSİFİKATSIYASI.**

**Tuzuvchilar:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi tayanch ixtisoslashtirilgan maktabning Tarix fani o'qituvchisi **Abdujalilova Nigora Abdusattarovna**

**Ekspert:** Oliy toifali tarix va davlat huquq asoslari fani o'qituvchisi **Dehqonov G'ayrat Ro'zmatovich**

11-sinfini tugatgan o'quvchilar O'zbekiston tarixi fanidan ta'lim dasturi bo'yicha ma'lum darajadagi kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2023–2024-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma va o'g'zaki shaklda o'tkaziladi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari O'zbekiston tarixi fani bo'yicha umumta'lim maktablarning 10-11-sinflari mavzularini qamrab olingan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir o'quvchi bittadan biletni tanlab oladi. Biletda o'quvchiga 5 tadan savol beriladi. Savollarning 2 tasi bilishga, 2 tasi qo'llashga, 1 tasi mulohazaga oid bo'ladi. Mulohazaga oid savolga javob o'g'zaki topshiriladi. O'quvchi bilet savollariga javob berishi uchun 120 daqiqa vaqt beriladi.

O'quvchilarning yozma va o'g'zaki ishlari 100 ballik tizim asosida:

0 – 29% – “qoniqarsiz”;

30–65% – “qoniqarli”;

66–85% – “yaxshi”;

86–100% – “a'lo” baho kabi baholanadi. Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, Ishchi guruh tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan 2 ta variant tuzilib, e'lon qilinadi.

O'zbekiston tarixi	Soni	Bilish	Qo'llash	Mulohaza
XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 90-yillariga		1	1	
Mustaqillik davri		1	1	1
Jami	5	2	2	1

### TOPSHIRIQ BO'YICHA BAHOLASH MEZONI

Nº	Bo'lim nomi	Topshiriq turi	Topshiriq shakli	Baholash mezoni
<b>XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 90-yillariga</b>				
1.	Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklaridagi ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishi, Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi va Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylanishi. Turkistonda Rossiya imperiyasiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari. Turkistonda jadidchilik harakati vujudga kelishi va jadidchilik harakati namoyandalarning faoliyati.	B	Qisqa javobli	J: _____  Savolni javobi yoziladigan bo'lib to'g'ri javob uchun <b>18 ball</b> bilan baholanadi. Xato javob uchun <b>0 ball</b> beriladi.
2.	Buxoro amirligi va Xiva xonliklarining tugatilishi. Turkiston muxtoriyati. Turkiston ASSR, BXSR va XXSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar. O'rta Osiyoda hududiy chegaralanish va O'zbekiston SSRning tashkil topishi. Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi qatag'onlik siyosati. O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida.	Q	Xarita	Xaritada belgilangan hududni aniqlab berilgan topshiriq bajarilsa – <b>21 ball</b> Hudud aniqlansa lekin topshiriq bajarilmasa – <b>10 ball</b> . Xato javob uchun <b>0</b>

	1980–1990-yillarda O‘zbekiston. O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy faollik va mustaqillik sari intilishning kuchayishi.			ball beriladi.
--	---	--	--	----------------

### Mustaqillik davri

3.	<p>Mustaqillikning e’lon qilinishi va O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning boshlanishi.</p> <p>O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi.</p> <p>O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy siyosat.</p>	B	Qisqa javobli	J: _____	<p>Savolni javobi yoziladigan bo‘lib to‘g‘ri javob uchun <b>18 ball</b> bilan baholanadi. Xato javob uchun <b>0 ball</b> beriladi.</p>
4.	<p>O‘zbekistonda etnik va konfessiyalararo munosabatlari.</p> <p>Ta’lim tizimi islohotlari va kadrlar tayyorlash.</p> <p>Mustaqillik yillarda ilm-fan va sportning rivojlanishi.</p> <p>Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyot va ikki tomonlama munosabatlari.</p>	Q	Jadvalli test	Moslikni aniqlash	<p>Jadval ko‘rinishidagi topshiriqda, har bir savolga uning javobini mos keltirish kerak bo‘ladi.</p> <p>3-4 ta savol va 3-4 tadan ko‘p javob variantlari beriladi. 1 ta savolga bir nechta javoblar ham mos kelishi mumkin.</p> <p>Moslikni hammasini to‘g‘ri javob uchun <b>21 ball</b> beriladi.</p> <p>3 talik savollarda 1-ta to‘g‘ri javobga <b>7 ball</b>,</p> <p>4 talik savollarda 1-ta to‘g‘ri javob uchun <b>5,25 ball</b> barcha xato javob uchun <b>0</b></p>

				ball beriladi.	
5.	O‘zbekistonning tashqi siyosati va ikki tomonlama munosabatlari. O‘zbekiston respublikasining ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarining rivojlanishi	M	Tarixiy voqealik haqida mustaqil fikr bildirish	O‘gzaki	- Yil va sanalarni bila olsa - <b>3 ball</b> ; - Savolning mohiyatini, u bilan aloqador muammolarni tushunish va jarayonni bugungi kunga bog‘lay olsa – <b>5 ball</b> ; - Xarita bilan ishlay olsa – <b>4 ball</b> ; - mavzuga tanqidiy va tahlil baho bera olsa – <b>5 ball</b> ; - Imtixon oluvchi tomonidan berilgan mavzuga aloqador qo‘s Shimcha savollarga javob bera olsa – <b>5 ball</b> <b>22 ball</b>

### **TOPSHIRIQLAR BO‘YICHA BAHOLASH MEZONI.**

**Topshiriqlar quyidagi baholash mezoni bo‘yicha baholanadi:**

- 1) Bilishga** oid qisqa savollar berilgan bo‘lib, savolga to‘g‘ri javobi yozilgan bo‘lsa – **18 ball** bilan baholanadi. Xato javob uchun 0 ball beriladi.
- 2) Qo’llash** ikki usulda berilgan birinchi usul: xarita asosida ikkinchi uchun jadvalli test - moslashtirish. Xaritada belgilangan hududni aniqlab berilgan topshiriq bajarilsa – 21 ball Hudud aniqlansa lekin topshiriq bajarilmasa – 10 ball. Xato javob uchun 0 ball beriladi. Jadval ko‘rinishidagi topshiriqda, har bir savolga uning javobini mos keltirish kerak

bo‘ladi. 3-4 ta savol va 3-4 tadan ko‘p javob variantlari beriladi. Moslikni hammasini to‘g‘ri javob uchun **21 ball** beriladi. 3 talik savollarda 1-ta to‘g‘ri javobga **7 ball**, 4 talik savollarda 1-ta to‘g‘ri javob uchun **5,25 ball** barcha xato javob uchun **0 ball** beriladi.

**3) Mulohaza** o‘quvchidan berilgan savolga mustaqil fikr bildirishi so‘raladi – **22 ball**

- Yil va sanalarni bila olsa - **3 ball**;
- Savolning mohiyatini, u bilan aloqador muammolarni tushunish va jarayonni bugungi kunga bog‘lay olsa – **5 ball**;
- Xarita bilan ishlay olsa – **4 ball**;
- Mavzuga tanqidiy va tahlil baho bera olsa – **5 ball**;
- Imtixon oluvchi tomonidan berilgan mavzuga aloqador qo‘sishimcha savollarga javob bera olsa – **5 ball**

**2023-2024-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING  
11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN YAKUNIY  
IMTIHON SAVOLLARI.**

**1-savol BILISH (18 ball) 10-sinf O'zbekiston tarixi .**

1. XIX asrning o'rtalariga kelib, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari aholisining etnik tarkibi bir-biriga yaqin, asosan, o'zbeklardan iborat bo'lib yana qaysi elat vakillari ham yashagan?

Javob: \_\_\_\_\_

2. XIX asrning o'rtalarida Buxoro amirligida, Xiva va Qo'qon xonliklarida bosh vazir vazifasini qaysi lavozim egalari bajargan?

Javob: \_\_\_\_\_

3. Qanday omil Rossiya imperiyasi hukumatini O'rta Osiyoga istilochilik harakatlarining yanada tezlashishiga ta'sir etgan?

Javob: \_\_\_\_\_

4. XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining nechta darvozasi bo'lgan va nechta dahaga bo'lingan?

Javob: \_\_\_\_\_

5. Rossiya imperiyasining 1868 –yilda Buxoro amirligiga qarshi urush boshlashga nima bahona bo'lgan?

Javob: \_\_\_\_\_

6. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi necha bosqichda amalga oshirilgan va qachon Qo'qon xonligi tugatilgan?

Javob: \_\_\_\_\_

7. "Vabo isyoni ", "Dukchi Eshon qo'zg'oloni" qachon va qayerda bo'lib o'tgan?

Javob: \_\_\_\_\_

8. 1916-yildagi Jizzax qo'zg'oloni nima sababdan ko'tarilgan?

Javob: \_\_\_\_\_

9. Qachon jadidchilik harakati yuzaga kelgan va jadidchilik harakati namoyandalaridan kimgarni bilasiz?

Javob: \_\_\_\_\_

10. Abdulla Avloniy 1907-yilda asos solingan gezeta nomi nima va maktablar uchun qanday darsliklar yaratgan?

Javob: \_\_\_\_\_

---

---

---

---

**2-savol QO'LLASH (21 ball) Xarita bilan ishlash (10-sinf O'zbekiston tarixi).**

1. Yulduzcha bilan belgilangan hududni aniqlab, 1917-yil 27-noyabrda tashkil etilgan davlat haqida ma'lumot bering? (Qo'llash - 21 ball)



## Javob:

2. Yulduzcha bilan belgilangan hududni aniqlab, shu hududda 1918-1924-yillar orasida Sovet hokimiyatiga qarshi istiqlolchilik harakatlari haqida ma'lumot bering. (Qo'llash - 21 ball)



Javob: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

3. Xarita asosida O'rta Osiyo hududida 1924-yilda tashkil etilgan davlatlarni aniqlab ko'rsating va milliy hududiy chegaralarin haqida ma'lumot bering. (Qo'llash - 21 ball)



Javob: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_


\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

4. Yulduzcha bilan belgilangan hududni aniqlab, shu hududda 1918-1924-yillar orasida Sovet hokimiyatiga qarshi istiqlolchilik harakatlari haqida ma'lumot bering. (Qo'llash - 21 ball)



Javob:

5. 1924-1936-yillarda O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rnida tashkil etilgan davlat hududlarini ajratib, ular haqida ma'lumot bering. (Qo'llash - 21 ball)



Javob: \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

6. O‘zbekiston SSR tashkil topgan paytda 1925yil fevral-aprel davomida (a) shahri, 1925-yil apreldan 1930- yil sentyabrgacha (b) shahri va (c) xozirgacha O‘zbekiston SSR poytaxti sanalgan. Xarflarni o‘rnidagi shaharlar xaritada nechinchi raqamda belgilanganligini aniqlang. (Qo‘llash - 21 ball)



Javob: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

7. Yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi amalga oshirilgan hududlarni xaritadagi raqamlar asosida aniqlang va Yer-suv islohoti haqida ma'lumot bering. (Qo'llash - 21 ball)



Javob:

8. 1956- yili (a) viloyatida Gazli neft-gaz koni topilgan va 1958-yil 3-sentyabrda kon-metallurgiya kombinatiga poydevor qo‘yilishi bilan (b) shahriga asos solingan. Xarflarni o‘rnidagi shahrlar xaritada nechinchi raqamda belgilanganligini aniqlang. (Qo‘llash - 21 ball)



Javob: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

9. 1925-yil 13–17-fevral kunlari Buxoroda bo‘lib o‘tgan Butun o‘zbek Sovetlarining I ta’sis qurultoyida «O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to‘g‘risida Deklaratsiya» qabul qilingan. Unga ko‘ra O‘zbekiston SSR tarkibiga qaysi viloyatlar kirgan? Viloyatlarni xarita asosida aniqlang. (Qo‘llash - 21 ball)



Javob:

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

10. 1943-yildan O‘zbekiston uchun yangi ekin – qand lavlagi ekish uchun qaysi hududlardan unumli yerlar ajratilgan? Hududlarni xaritadagi raqamlar asosida aniqlang. (Qo‘llash - 21 ball)



Javob:

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

### **3-savol BILISH (18 ball) (11-sinf O‘zbekiston tarixi).**

1. 17 moddadan iborat bo‘lgan qaysi qonun suveren O‘zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab bergen? (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini yaratish ustida qancha muddat ishlangan va loyihaning dastlabki varianti nechta bo‘lim va moddadan iborat bo‘lgan? (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

3. 1991-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobilik asosida bo‘lib o‘tgan saylovda kimlar oliy lavozimga o‘z nomzodligini qo‘yanlar? (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2005-yildan boshlab qanday palatalar asosida ish olib bormoqda? (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining uchinchi tamoyilida davlat hokimiyyati uch tarmoqqa bo‘linishi qonunlashtirilgan. Bular qaysilar? (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

6. Qaysi partianing asosiy maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan? (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

7. Qachon va nima uchun Angren–Pop temir yo‘li va Qamchiq tunneli ochilgan? (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

8. 1992-yil avgustda O‘zbekiston qaysi davlat bilan Andijon viloyatining Asaka shahrida avtomobil ishlab chiqaradigan qo‘shma korxonasini qurish to‘g‘risida shartnoma imzolangan. (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

9. Mamlakatda suv tanqisligi hisobga olinib, 1998-yildan boshlab paxtachilikda qanday texnologiyalar joriy etildi? (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

10. Qaysi viloyatida xalqaro intermodal logistika markazi bunyod etildi? (Bilish - 18 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

## **4-savol QO'LLASH (21 ball) Jadvalli test, moslashtirish (11-sinf O'zbekiston tarixi)**

1. Quyidagi davlatlarning nishonlaydigan bayramlari bilan moslashtiring. (Qo'llash - 21 ball).

1) Xitoy

a) «Soller»

2) Koreys

b) «Sabanto'y»

3) Uyg'ur

c) «Sayil»

d) «Chunuze»

e) «Ovol – tano»

f) «Maslennitsa»

1)	2)	3)

2. Quyidagi atamalarni izohi bilan moslashtiring. (Qo'llash - 21 ball).

1) Baynalmilal

a) Tayanch oliy ta'lim kursidan so'ng qo'shimcha dastur bajargan, maxsus imtihonlarni topshirgan va muayyan ilmiy ishni himova qilgan shaxslarga beriladi.

2) Konfessiya

b) Oliy ta'lim dasturining birinchi bosqichini tugallagan talabalarning ilmiy darajasi.

3) Tolerantlik

c) Jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi.

4) Bakalavr

d) Diniy ishonch, e'tiqod; shu bilan birga mazhab mazmuniga ega tushuncha.

e) O'zgalarning fikr - g'oyalari, e'tiqodi, his-tuyg'ulari, turmush tarzi va xulq-atvoriga nisbatan sabr-toqatli bo'lish, beparvo qarash; bag'rikenglik.

f) Xalqaro, umuminsoniy, umumxalqiy mazmunlarida qo'llaniladi.

1)	2)	3)	4)

3. Yillarni nomlari bilan moslashtiring. (Qo'llash - 21 ball).

1) 2001 - yil

a) “Barkamol avlod yili”

2) 2010 - yil

c) “Ona va bola yili”

3) 2015 - yil

d) “Sog‘lom ona va bola yili”

4) 2023 - yil

e) “Yoshlar va biznesni qo’llab quvvatlash yili”

f) “Keksalarni e’zozlash yili”

g) “Yoshlar yili”

1)	2)	3)	4)

4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirilgan. Bosqichlar bilan amalga oshirilgan ishlarni moslashtiring. (Qo'llash - 21 ball).

I bosqich

a) Maktab darsliklari tamomila yangilandi

b) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to'plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta'lim tizimi takomillashtirilib borildi

II bosqich

c) Yurtimizda to'liq 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi

d) Dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart - sharoitlar yaratildi

III bosqich

e) 1-oktabr – «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» deb belgilandi.

f) Milliy dastur keng miqqyosda joriy etildi.

1)	2)	3)

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentlari va ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni moslashtiring. (Qo'llash - 21 ball).

1) Islom Karimov

a) Maktab ilk qadam qo'ygan birinchi sinf o'quvchilariga Prezident sovg'asi beriladi.

2) Shavkat Mirziyoyev

b) Multimedia o'quv adabiyotlari ham yaratilishi yo'lga qo'yildi.

c) 11-yillik ta'limga joriy etildi.

d) Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

e) Yurtimizda to'liq 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi

f) maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi qabul qilindi.

1)	2)

6. Xorijiy davlat universitetlarini moslashtiring. (Qo'llash - 21 ball).

1) Buyuk Britaniyaning

a) I.M. Gubkin nomidagi neft va gaz davlat universiteti

2) Rossiya

c) Menejmentni rivojlantirish instituti

3) Janibiy Koreya

d) Xalqaro Vestminster universiteti

4) Italiya

e) Turin politexnika universiteti

f) M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti

1)	2)	3)	4)

7. Quyidagi Universitetlarning asosiy yo'nalishlari bilan moslashtiring. (Qo'llash - 21 ball).

Vestminster universiteti

a) Iqtisodiyot

Turin politexnika universiteti

b) Matematika va psixologiya

INHA universiteti

c) Axborot texnologiyalari

d) Neft va gaz

e) Iqtisodiyot va biznes

f) Texnika va texnologiyalar

1)	2)	3)

8. Quyidagi sport musobaqalari kimlar o‘rtasida o‘tkazilishi bilan moslashtiring. (Qo‘llash - 21 ball).

«Barkamol avlod»

a) Umumta’lim maktablar o‘quvchilari o‘rtasida

b) Harbiylar o‘rtasida

«Universiada»

c) O‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari talabalari o‘rtasida

«Umid nihollari»

d) Oliy o‘quv yurtlari ayollari o‘rtasida

e) Oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida

f) Mahalla yoshlari o‘rtasida

1)	2)	3)

9. Quyidagi sportchilarni ular haqidagi ma’lumotlar bilan moslashtiring. (Qo‘llash - 21 ball).

Hasanboy  
Do’smatov

a) 2016-yilgi Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo‘lib o‘tgan XXXI Olimpiadada oltin medal sohibi bo‘ldi.

Shahram  
G‘iyosov

b) Sportni boks turi bilan shug‘ullanadi

Murodjon  
Ahmadaliyev

c) Sportni og‘ir atletika turi bilan shug‘ullanadi

Ruslan  
Nuriddinov

d) Osiyoning eng yaxshi hakami deb e’tirof etildi.

e) 2016-yilgi Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo‘lib o‘tgan XXXI Olimpiadada kumush medalni qo‘lga kiritdi.

f) 2016-yilgi Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo‘lib o‘tgan XXXI Olimpiadada bronza medalni qo‘lga kiritdi.

1)	2)	3)	4)

10. Quyidagi yoshlarga oid tuzilgan tashkilotlar bilan ular haqidagi ma'lumotlar bilan moslashtiring. (Qo'llash - 21 ball).

1) «Kamolot»  
Yoshlar ijtimoiy  
harakati

2) «O'zbekiston  
Yoshlar ittifoqi»

3) «Kamolot»  
jamg'armasi

- a) O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajara olmagan va haqiqiy ma'nodagi yoshlar yetakchisiga aylana olmagan tashkilot.
- b) 2017-yil 30-iyun kuni tashkil etilgan.
- c) 2001-yil Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilot sifatida tashkil etilgan.
- d) Yoshlarning muammolari hamda tashabbuslarini O'zbekiston Prezidentiga to'g'ridan - to'g'ri yetkazadi.
- e) Yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini o'rganib, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzgan tashkilot.
- f) Asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, jamiyatda munosib o'rnni egallashga ko'maklashishdan iborat.

1)	2)	3)

## **5-savol MULOHAZA (22 ball) (11-sinf O‘zbekiston tarixi)**

1. Nima deb o‘ylaysiz? O‘zbekistonning qanday qulay va noqulay geosiyosiy imkoniyatlari mavjud? (Mulohaza - 22 ball).
2. O‘zbekiston tashqi siyosatining tamoyillarini sanang va siz qaysi tamoyilni o‘zgartirgan bo‘lar edingiz? (Mulohaza - 22 ball).
3. Nima sababdan O‘zbekiston Mustaqillikning dastlabki yillarda Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga e’tibor qaratgan? (Mulohaza - 22 ball).
4. Xozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Yevropa davlatlari bilan olib borayotgan munosabatlarining ijobiy va salbiy tomonlarini izohlang. (Mulohaza - 22 ball).
5. Osiyoning yangi industrial rivojlanayotgan mamlakatlariga qaysi davlatlar kiradi? Sizningcha ular bilan aloqalar qanchalik muhim? (Mulohaza - 22 ball).
6. Nima deb o‘ylaysiz, O‘zbekiston BMTga a’zo bo‘lishi qanchalik muhim? (Mulohaza - 22 ball).
7. Hozirgi kunda Orol muammosini bartaraf etish bo‘yicha qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda? Sizningcha Orol muammosini bartaraf etish uchun yana nimalar qilish kerak? (Mulohaza - 22 ball).
8. Nima sababdan O‘zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlar bilan o‘zaro teng manfaatli aloqalarni mustahkamlash bo‘lmoqda? (Mulohaza - 22 ball).
9. Nima deb o‘ylaysiz, nima uchun O‘zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo bo‘lgan? (Mulohaza - 22 ball).
10. Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi organlar va tuzilmalarni sanang. Ularning funksiya va vakolatlari nimalardan iborat? (Mulohaza - 22 ball).